



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-mart



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi – 47,8 %**



**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi –  
3 467,1  
ming so'm**



**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi – 72,6 %**



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-aprel holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart)




## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-aprel holatiga ko'ra)

Soni, birlikda



2024

274 466

2023

266 305

2022

291 087

2021

259 568

2020

210 933

Soni, birlikda

2024

12 736

2023

14 868

2022

13 905


2021

14 823


2020

14 494


## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-mart)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>127 872,1</b>	<b>100,0</b>	<b>114,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 567,2	2,8	111,5
viloyatlar:			
Andijon	5 859,1	4,6	111,4
Buxoro	5 274,9	4,1	112,9
Jizzax	2 812,7	2,2	111,1
Qashqadaryo	5 319,0	4,2	113,9
Navoiy	3 135,4	2,5	114,0
Namangan	5 023,8	3,9	110,6
Samarqand	7 857,8	6,1	114,0
Surxondaryo	4 187,7	3,3	109,6
Sirdaryo	1 677,5	1,3	113,3
Toshkent	8 602,0	6,7	112,4
Farg'ona	7 363,8	5,8	112,2
Xorazm	3 632,9	2,8	116,8
Toshkent sh.	52 223,8	40,8	120,5

<sup>1</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart)


Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Toshkent shahri	17 124,8	117,3%
Navoiy	2 909,6	111,9%
Toshkent	2 812,1	110,3%
Buxoro	2 576,5	111,0%
Samarqand	1 863,0	111,6%
Jizzax	1 861,6	108,8%
Sirdaryo	1 831,3	111,2%
Xorazm	1 817,2	114,6%
Farg'ona	1 809,1	109,9%
Qoraqalpog'iston Resp.	1 778,5	110,0%
Andijon	1 722,4	109,1%
Namangan	1 634,8	108,2%
Qashqadaryo	1 490,4	111,4%
Surxondaryo	1 451,9	106,9%

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **47,8** foizni, shu jumladan, **21,7** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-mart)








## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>127 872,1</b>	<b>100,0</b>	<b>114,2</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8 471,5	6,6	118,8
Moliyaviy xizmatlar	30 944,7	24,2	125,2
Transport xizmatlari	30 244,3	23,7	107,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	14 300,3	11,2	109,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 745,9	3,7	110,5
Savdo xizmatlari	28 764,3	22,5	110,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 135,6	2,4	110,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4 951,7	3,9	125,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 250,4	1,8	114,2
Ijara xizmatlari	2 044,1	1,6	110,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 924,1	1,5	107,8
Shaxsiy xizmatlar	3 078,1	2,4	108,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 919,7	1,5	108,9
Boshqa xizmatlar	5 397,7	4,2	112,8

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	17 732,8
Farg'ona	1 705,2
Samarqand	1 308,6
Toshkent	1 255,3
Andijon	1 232,6
Buxoro	1 094,9
Qashqadaryo	1 019,2
Xorazm	955,5
Surxondaryo	940,5
Qoraqalpog'iston Resp.	850,7
Navoiy	815,4
Namangan	778,4
Jizzax	692,5
Sirdaryo	563,1

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-mart)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-martida 89,2** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **57,3** foizni yoki **17 732,8** mlrd so'mni tashkil etdi.


**2023- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan Xorazm viloyatida yuqori o'sish sur'ati **141,6** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **47,3** foiz.

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **5 662,7** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **118,9** foizni tashkil etgan.


## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-mart) <sup>1)</sup>

**2024- yilning yanvar-mart** oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14 300,3** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,2 %** ni tashkil etdi.



Toshkent shahri

2 437,1

+4,0%

Toshkent

1 848,9

+10,2%

Samarqand

1 740,1

+10,6%

Farg'ona

1 296,4

+9,6%

Andijon

1 190,0

+10,1%

Qashqadaryo

1 024,4

+10,0%

Buxoro

996,7

+9,9%

Namangan

864,5

+22,5%

Xorazm

764,7

+8,8%

Surxondaryo

562,3

+8,0%

Qoraqalpog'iston Resp.

493,0

+12,9%

Navoiy

464,9

+9,7%

Jizzax

403,3

+12,3%

Sirdaryo

213,6

+11,6%

**Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**

(2024- yil yanvar-mart)



**2024- yil yanvar-mart** oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **67,7** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **53,5 %**.


Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2024- yil yanvar-mart** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **62,3** foizni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi
Toshkent shahri	10 235,4	+10,1%
Toshkent	2 796,2	+11,0%
Farg'ona	2 121,4	+9,5%
Samarqand	1 978,5	+9,7%
Andijon	1 741,5	+10,2%
Buxoro	1 673,1	+14,7%
Qashqadaryo	1 552,5	+7,2%
Namangan	1 536,7	+11,6%
Surxondaryo	1 473,3	+13,5%
Navoiy	893,3	+8,7%
Jizzax	891,9	+11,4%
Xorazm	753,1	+6,3%
Qoraqalpog'iston Resp.	724,3	+10,8%
Sirdaryo	390,6	+7,5%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda    ○ O'sishi


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-mart** oylaridagi ulushi **54,8 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024- yil yanvar-mart)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>8 890,1</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
<b>AKT xizmatlari sektori</b>	<b>8 086,9</b>	<b>91,0</b>
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	363,2	4,5
Telekommunikatsiya xizmatlari	4 641,4	57,4
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	1 972,5	24,4
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	691,2	8,5
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	418,6	5,2
<b>Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori</b>	<b>803,2</b>	<b>9,0</b>
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	214,7	26,7
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	71,5	8,9
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	272,0	33,9
Boshqa axborot xizmatlari	245,0	30,5

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-mart** oylaridagi ulushi **58,2** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	2 306,8
Samarqand	391,2
Namangan	294,1
Farg'ona	266,6
Andijon	260,0
Buxoro	247,5
Qashqadaryo	239,4
Qoraqalpog'iston Resp.	183,5
Toshkent	175,0
Xorazm	167,6
Surxondaryo	160,9
Jizzax	122,3
Navoiy	84,7
Sirdaryo	52,1

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. **2020- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **1 377,3** mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **2 306,8** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **46,6** foiziga yetdi.






# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-mart** oylaridagi ulushi **45,1 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **29,8 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **25,1 %** ni tashkil etdi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)

Hudud	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi
Toshkent shahri	1 033,1	+16,2%
Toshkent	214,6	+20,1%
Samarqand	165,4	+22,7%
Farg'ona	148,7	+4,0%
Namangan	110,2	+6,5%
Andijon	105,7	+10,9%
Buxoro	101,6	+9,2%
Qashqadaryo	78,0	+16,9%
Xorazm	70,6	+7,8%
Surxondaryo	54,6	+7,2%
Qoraqalpog'iston Resp.	44,5	+20,6%
Jizzax	44,0	+8,6%
Navoiy	41,2	+8,0%
Sirdaryo	38,2	+7,1%

Hajmi, mlrd so'mda    O'sishi


## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **91,4** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

**2024- yil yanvar-mart** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **80,1** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



■ Hajmi, mlrd so'mda



O'sishi (kamayishi)

## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi

## Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart, mlrd so'mda)



**2024- yil yanvar-mart** oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **339,7** mlrd so'mga yetdi.



## Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)




Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **81,1** foiz yoki **275,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **1,4** mlrd so'm darajasida qayd etildi.

## Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart, so'mda)

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalterlik xizmatlari hajmi **5 542,7** so'mga oshib, **9 209,9** so'mni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, so'mda)



2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **90 351,1** so'mga yetdi. Shuningdek, Toshkent (**4 062,0** so'm) va Navoiy (**2 512,0** so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi.


Surxondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich o'rtacha **529,7** so'mni tashkil etdi.

## Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart, mlrd so'mda)



**2024- yil yanvar-mart** oylarida yuridik xizmatlarning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **34,8 %** yoki **118,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)




Hududlar orasida ushbu xizmat turiga Toshkent shahrida talab yuqori. Ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **85,1** mlrd so'mga yetdi yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **72,0** foizini tashkil etdi.

Eng ko'p yuridik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni mazkur hududda mavjuddir.

## Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart, so'mda)

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **1 181,7** so'mga oshdi va o'rtacha **3 206,9** so'mni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart, so'mda)




2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **27 919,2** so'mga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm viloyatida nisbatan yuqori ko'rsatkich **1 951,3** so'm qayd etildi.

Surxondaryo viloyatida yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **316,6** so'mni tashkil etdi.




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **27,8** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)



**2020- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **861,9** mlrd so'mga oshib, **1 919,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **54,7** foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi  
Tel.: 71-202-80-59 (61)



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.